

MADANIYAT VA SAN'AT TA'LIM TASHKILOTLARIDA QO'LLANADIGAN INTERFAOL METODLAR SAMARASI

Soipova Orzugul Inomjon qizi

*Qo'qon Davlat Universiteti Gumanitar fanlar va
tillar fakulteti Tarix yo'nalishi 202-guruh 2- bosqich talabasi.*

Tel : +998933848115;

e-mail : orzugulsoipova72@gmail.com

Annotatsiy

Ushbu maqolada madaniyat va san'at yo'nalishidagi ta'lim tashkilotlarida interfaol o'qitish metodlarini qo'llash samaradorligi tahlil qilinadi. Tadqiqotda talabalarning ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish, dars jarayonida ularning faolligini oshirish hamda mustaqil ishlash ko'nikmalarini shakllantirishda interfaol metodlarning o'rni yoritilgan. Shuningdek, "Aqliy hujum", "Klaster", "Debat", "Rol o'ynash" kabi usullarni amaliy mashg'ulotlarda qo'llash tajribalari misolida ularning ta'lim sifatiga ijobiy ta'siri asoslab berilgan. Maqola natijalari madaniyat va san'at yo'nalishidagi pedagoglar uchun dars jarayonini samarali tashkil etishda metodik tavsiyalar sifatida foydali bo'lishi mumkin.

Аннотация

В данной статье анализируется эффективность использования интерактивных методов обучения в образовательных организациях в сфере культуры и искусства. Исследование подчеркивает роль интерактивных методов в развитии у учащихся навыков творческого мышления, повышении их активности в учебном процессе и формировании навыков самостоятельной работы. Также положительное влияние таких методов на качество образования подтверждается примером опыта использования таких методов, как «Мозговой штурм», «Классер», «Дебаты», «Ролевые игры» на практических занятиях. Результаты статьи могут быть полезны в качестве методических рекомендаций для преподавателей в сфере культуры и искусства по эффективной организации учебного процесса.

Abstract

This article analyzes the effectiveness of using interactive teaching methods in educational organizations in the field of culture and art. The study highlights the role of interactive methods in developing students' creative thinking skills, increasing their

activity in the lesson process, and forming independent work skills. Also, the positive impact of such methods on the quality of education is substantiated by the example of the experience of using such methods as "Brainstorming", "Cluster", "Debate", "Role Playing" in practical classes. The results of the article can be useful as methodological recommendations for teachers in the field of culture and art in the effective organization of the lesson process.

Kalit soʻzlar: *interfaol metodlar, madaniyat taʼlimi, sanʼat taʼlimi, ijodiy fikrlash, oʻquv jarayoni, innovatsion yondashuv.*

Ключевые слова: *интерактивные методы, культурное образование, художественное образование, творческое мышление, процесс обучения, инновационный подход.*

Keywords: *interactive methods, cultural education, art education, creative thinking, learning process, innovative approach.*

Mamlakatimizda madaniyat va sanʼat taraqqiy etmasa, jamiyat rivojlanmaydi. Qolaversa, taraqqiyotning chinakam samarasi boylik yoki kuch-qudrat darajasi bilan emas, milliy madaniyatning naqadar yuksaklikka koʻtarilgani bilan oʻlchanishi xususida tarixiy misollar koʻp. Masalan, ingliz sanʼatshunos olimi F. R. Martin “Temuriylar singari sanʼati va madaniyatini qadrlaydigan hukmdorlar Markaziy Osiyoda hech vaqt boʻlmagan” deb yozadi. Shu maʼnoda, davlatimiz rahbarining milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasini ishlab chiqishga doir tashabbusi tafakkur tarzimiz, hayotga munosabatimiz, millat va xalqning buguni, ertasini, navqiron avlod maʼnaviy kamolotini, odamlarimizning nurli kelajagini yaratishga qaratilgan ishlarimizning tub ildizlarini ham oʻz ichiga qamrab oladi desak, yanglishmagan boʻlamiz.

Konsepsiya besh bobdan iborat. Unda kelgusida amalga oshirilishi lozim boʻlgan bir qator ustuvor vazifalar belgilab berilgan. Jumladan, madaniyat sohasidagi munosabatlarni tartibga solish, tizimdagi muassasalar huquqiy maqomini belgilash, ijodkorlarni ijtimoiy himoyalashning huquqiy bazasini, kadrlar tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yaratish, madaniyat hamda sanʼat muassasalari moddiy-texnika imkoniyatlarini kengaytirish koʻzda tutilgan. Shuningdek, sohaga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini toʻliq tatbiq etish, xalqaro festival va koʻrik-tanlovlarda chinakam isteʼdod egalari ishtirokini taʼminlash, xorijiy tashkilotlar bilan ijodiy hamkorlikni yoʻlga qoʻyish kabi qator chora-tadbirlar belgilangan. Qaror asosida 2019-2020 yillarda Oʻzbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasini amalga oshirish boʻyicha “yoʻl xaritasi” hamda Qoraqalpogʻiston

Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida amalga oshirilishi rejalashtirilayotgan chora-tadbirlar dasturi, 2019 — 2022 yillarda yangi quriladigan, rekonstruksiya qilinadigan, kapital ta'mir lanadigan va to'liq jihozlanadigan madaniyat markazlarining manzilli ro'yxati ham tasdiqlandi[1].

Hozirgi globallashtirish jarayonida madaniyat va san'at sohasida ta'lim-tarbiya jarayonini takomillashtirish, o'quvchilarning ijodiy salohiyatini rivojlantirish hamda ularni mustaqil fikrlashga o'rgatish ta'lim tizimining ustuvor yo'nalishlaridan biridir. Bunday maqsadlarga erishishda an'anaviy ta'lim metodlari bilan bir qatorda interfaol o'qitish usullaridan samarali foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Interfaol metodlar o'qituvchi va talaba o'rtasida o'zaro hamkorlik, fikr almashish, mustaqil izlanish va ijodiy yondashuvni ta'minlaydi. Ayniqsa, madaniyat va san'at yo'nalishidagi ta'limda bu usullar talabalarning badiiy didini shakllantirish, estetik tafakkurini rivojlantirish va ijodiy faoliyatini rag'batlantirishga xizmat qiladi.

Amaliyotda keng qo'llanilayotgan interfaol metodlardan biri — "Aqliy hujum" usuli bo'lib, u talabalarni muayyan mavzuda erkin fikr yuritish, yangi g'oyalarni ilgari surish va jamoada ishlash ko'nikmalarini rivojlantiradi. "Klaster" usuli esa ma'lumotlarni tizimlashtirish, g'oyalar o'rtasidagi mantiqiy bog'liqlikni aniqlashga yordam beradi. "Rol o'ynash" metodida talabalar sahna, tasviriy yoki musiqa san'atiga oid mavzularni amaliy tarzda o'zlashtiradilar, bu esa ularning ijodiy faoliyatini kuchaytiradi[2].

Hech shubhasiz, o'z kuchimiz va imkoniyatlarimizga bo'lgan ishonch bizni Uchinchi Renessans poydevorini yaratishdek ezgu maqsad yo'lida birlashtirib, yanada kuchli va mustahkam qilmoqda. Bu intilishlar ulkan amaliy ishlarga aylanib, buyuk xalq harakati tobora kengayib bormoqda. Bunday qudratli safda bo'lishning o'zi kata baxt, kata sharaftir[3].

Shunday jarayonlardan biri, innovatsiya muammosi hisoblanadi. Madaniyat va san'at sohasida innovatsion rivojlanishga qaratilgan harakatlarni amalga oshirishda ba'zi yutuqlar va ba'zi muvaffaqiyatsizliklarga qaramasdan, bu jarayon O'zbekiston uchun hamon dolzarb bo'lib qolmoqda. Bunda asosiy muammo - iqtisodiyot va jamiyatning uzoq muddatli turg'unligi va mamlakatning jahon taraqqiyotidan ancha ortda qolib ketishi sanaladi. Ayni paytda, milliy madaniyatni yanada rivojlantirishga to'sqinlik qilayotgan bir qator tizimli kamchiliklar mavjud.

Jumladan:

- birinchidan, madaniyat sohasidagi munosabatlarni tartibga solish, madaniyat va san'at muassasalari, ijodiy uyushma va birlashmalarning huquqiy maqomi, ijodkorlarni ijtimoiy himoya qilishga qaratilgan yagona huquqiy baza yaratilmagan;

- ikkinchidan, yosh ijodkorlarga ta'lim-tarbiya berish, yuqori malakali kadrlar tayyorlash va ularning malakasini oshirish borasida puxta tizim yaratilmagani madaniyat sohasida yagona davlat siyosatini samarali olib borish, aholining o'sib borayotgan madaniy ehtiyojlarini qondirish va madaniy xizmatlar sifatini keskin oshirish imkonini bermayapti;

- uchinchidan, aksariyat madaniyat va san'at muassasalarining moddiy-texnik bazasi zamon talablari va xalqaro standartlarga mos kelmaydi, bu esa ularning to'laqonli faoliyat ko'rsatishiga to'sqinlik qilmoqda;

- to'rtinchidan, zamonaviy media makonda milliy madaniyatimiz munosib o'rin egallamagani, sohaga axborot-kommunikatsiya texnologiyalari to'liq joriy etilmagani sohani keng tadqiq va targ'ib etish, xalqaro madaniy jarayonlarga talab darajasida integratsiya qilishga yo'l bermayapti;

- beshinchidan, madaniyat va san'at sohasidagi nufuzli xalqaro festival va tanlovlarda ijodkorlarimizning ishtirokini izchil ta'minlash va ularning sara asarlarini namoyish etish, milliy ijodiy mahsulotlarni eksport qilishning samarali tizimi yaratilmagani, xorijiy tashkilotlar bilan hamkorlik yetarlicha yo'lga qo'yilmagani ham soha rivojiga to'sqinlik qilmoqda[4].

Kelgusida madaniyat va san'at ta'limida interfaol metodlardan foydalanish tizimini yanada takomillashtirish, o'qituvchilarning malakasini oshirish, raqamli texnologiyalar bilan integratsiyalashgan darslarni tashkil etish zarur. Shuningdek, san'at yo'nalishidagi o'quv dasturlariga ijodiy loyiha ishlari, musobaqalar va interfaol seminarlar kiritish, talabalar ijodiy ishlarini baholashning innovatsion mezonlarini ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir.

Xulosa qilib aytganda, madaniyat va san'at ta'lim tashkilotlarida interfaol metodlarni tizimli ravishda qo'llash - ta'lim mazmunini boyitadi, ijodiy fikrlovchi, mustaqil qaror qabul qila oladigan, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni chuqur anglaydigan barkamol shaxslarni tarbiyalashga xizmat qiladi. Shu bois, interfaol o'qitish usullarini amaliyotga joriy etish nafaqat pedagogik jarayonni samarali qiladi, balki O'zbekistonning madaniyat va san'at sohasida raqobatbardosh kadrlar tayyorlash tizimini yangi bosqichga olib chiqadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Davlat Statistika Qo'mitasi
2. Hasanov B. Interfaol o'qitish metodlari: nazariya va amaliyot. - Samarqand: SamDU nashriyati, 2021
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi hamda O'zbekiston Yoshlar forumida so'zlagan nutqidan iqtiboslar. Yangi O'zbekistonda erkin va farovon yashaylik. - Toshkent: Toshkent nashriyot uyi, 2021
4. www.lex.uz
5. <http://oac.dsmi-qf+.uz>